


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"
Rector G. R. R. R. R.

2021 yil 28.08

IQTISODIY XAVFSIZLIK VA RAQOBATBARDOSHLIK
FANINIG O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

400000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohasi:

410000 – Biznes va boshqaruv

Mutaxassislik:

70411801 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

Toshkent – 2021

2/14

2

1/2

11

Fan/modul kodi IXR104	O'quv yili 2021-2022	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlik	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda davlat va shaxsning muhim hayotiy manfaatlarini tan olgan holda mamlakat iqtisodiy-xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berish. Fanning vazifasi – vazifasi talabalarda bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida shaxs, korxona (firma) va milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish asosida zarur bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobatdoshlikning mohiyati, asosiy ko'rsatkichlari, tahdidlar Xavfsizlik tushunchasining mazmuni, jamiyatda va insonning hayot faoliyatida tutgan o'rni. Milliy xavfsizlikning mazmuni va tarkibiy elementlari. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi. Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy elementlari. Iqtisodiy xavfsizlikning nazariy konsepsiyalari. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar. Tahdid tushunchasining mohiyati. Tahdid turlari. Iqtisodiy tahdidlarning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy tahdidlarning turlari. Insonning faoliyat sohalariga bog'liq, ob'ektiv va sub'ektiv oqibatiga ko'ra tahdidlarning turkumlanishi. Ichki va tashqi tahdidlar. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi. Mamlakatning xalqaro iqtisodiy uyushma, tashkilotlarda ishtirok etishi bilan bog'liq tahdidlar. 2-mavzu. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash mexanizmi Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional shart-sharoitlari. Transaksion xarajalar va xizmatlar. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni davlat tomonidan boshqarishning tashkiliy shakllari va iqtisodiy xavfsizlikni o'rganilayotgan mamlakatlarda samarali va raqobatbardosh ishlab usullari. O'rganilayotgan mamlakatlarda mamlakatlarda makroiqtisodiyot chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash. O'rganilayotgan mamlakatlarda makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiy darajadagi tarkibiy siyosatlarini amalga oshirish. Davlatning iqtisodiy xavfsizlik va raqobatbardoshlik konsepsiyasini ishlab chiqish. O'rganilayotgan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos			

xususiyatlari va muammolari. Iqtisodiy xavfsizlikni va raqobatbardoshligini ta'minlashga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. 3-mavzu. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari Shaxs erkinliklari va uning iqtisodiy mustaqilligi. Shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va manfaatli. Shaxs manfaatlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy tahdidlar. O'rganilayotgan mamlakatlarda shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalaniishi. Insonning intellektual va iqtisodiy manfaatlarini himoyalash. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlar. Aholining ish bilan bandligining insonparvarlikka yo'naltirilgan modelini shakllantirish. Ishsizlik xavfi va uning oldini olish. Daromadlarni ishlab topish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish yo'llari. O'rganilayotgan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilishning kuchli tizimini yaratish masalalari. 4-mavzu. Korxona va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligi Korxonaning iqtisodiy manfaatlari. Korxona faoliyatidagi noaniqlik va risklar, iqtisodiy tahdidlar. Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlar. O'rganilayotgan mamlakatlarda korxona va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizlik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ta'minlash yo'llari. Ishlab chiqarish, moliyaviy faoliyat xavfsizligini ta'minlash. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Innovatsiya va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish. Xo'jalik faoliyatini va personalni iqtisodiy jihatdan himoya qilish. Korxonada xavfsizlik xizmatini tashkil etish va uning vazifalari. Korxonaning tijorat sirini saqlash va axborot obyektlarini himoya qilish. 5-mavzu. Xo'jalik faoliyatining moliya, pul-kredit sohasidagi iqtisodiy xavfsizligi Moliyaviy tashkilot va muassasalar iqtisodiy manfaatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy tashkilot ishonchligi va mustahkamligi mezonlari. Moliyaviy muassasalar o'rtasidagi raqobat kurashining xususiyatlari va shakllari. Pul muomalasidagi kriminal holatlarning yuzaga kelish sabablari. Qalbaki pul chiqarish. Iqtisodiy to'lamachilik. Tijorat muassasalarining litsenziyasiz faoliyat yuritishi. Moliyaviy muassasalardagi kriminallashuv jarayonlarining ijtimoiy jihatlari. O'rganilayotgan mamlakatlarda moliya, pul muomalasi va kredit sohalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari. Banklarning iqtisodiy xavfsizligi darajasini tartibga solish dastklari berilgan kreditlarning monitoring nazorati. 6-mavzu. Energetika sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash Energetika va energiya tushunchalarining iqtisodiy resurs sifatidagi mohiyati va ahamiyati. Energetika xavfsizligi tushunchasining mohiyati. Energetik xavfsizlikka tahdidlar. O'rganilayotgan mamlakatlarda energetik xavfsizlikka tahdidlar. O'rganilayotgan mamlakatlarda energetika xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. O'zbekistonda mustaqillik yillarida	
---	--

16. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.	
17. www.worldbank.org – Jahon banki rasmiy sayti	
7.	O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti" kafedrasida ishlab chiqilgan va 20<u>21</u> - yil "<u>26</u>" <u>08</u> dagi "<u>1</u>"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 20<u>21</u> - yil "<u>28</u>" <u>08</u> dagi "<u>1</u>"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sulalar: Rasulov T.S. – TDSHU "Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti" kafedراسi professori, iqtisod fanlari doktori
9.	Tagirizchilar: Vohidova M.H. – TDSHU "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm" kafedراسi (PhD) Hoshimov P.Z. - O'ZMU "Mintaqaviy Iqtisodiyot" kafedراسi dotsenti iqtisodiyot fanlari nomzodi (turdosh OTM).

energetika xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizda yoqilg'i-energetika tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalari.

7-mavzu. Oziq-ovqat xavfsizligi

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati. O'rganilayotgan mamlakatlarda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashdagi xavf-xatarlar. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning global va mintaqaviy muammolari. Oziq-ovqat xavfsizligining jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tayaminlanishi. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar. Qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash omili ekanligi. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalari. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari.

8-mavzu. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini va raqobatbardoshligini ta'minlash

Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi tushunchasining mohiyati. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.

O'rganilayotgan mamlakatlarning mintaqaviy siyosatining mazmuni va iqtisodiy xavfsizlikni va raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati. O'zbekistonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tantensiyalari va bu boradagi muammolar. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalari.

9-mavzu. Xufiyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish

Xufiyona iqtisodiyot tushunchasining mazmuni. Xufiyona iqtisodiyot va norasmiy iqtisodiyot sektori. Xufiyona iqtisodiyotning vujudga kelish sabablari. O'rganilayotgan mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash vositalari va usullari. Korrupsiya va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligi tizimida tugan o'ri. Jahonda korrupsiyaga qarshi kurash. O'rganilayotgan mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi tajribasi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash vositalari va usullari. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining mazmuni va ahamiyati. O'rganilayotgan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini yanada takomillashtirish yo'llari.

- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditalarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

6. Asosiy adabiyotlar

1. Абулкасимов Х.П. Давлатнинг иктисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. -Т.: Академија, 2012
2. Мокроносов А.Г., Маврина И.Н. Конкуренция и конкурентоспособность. Учебное пособие. - Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2014. - 194 с.
3. Лагов Ю.В., Ковалёв С.Н. Теневая экономика: Учебное пособие для аудиторов / Под ред. д.п.н., проф. В.Я. Кикотя; д.э.н., проф. Г.М.Казиахмедова. - М.: Норма, 2006. - 336 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: "O'zbekiston", 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
8. Шамагдиев А. «Иктисодий хавфсизлик ва божхона сиёсати» фанидан маъруза матнлари. Тошкент-2012
9. Богомолов В.А. и др. Экономическая безопасность: учеб.пособие для студентов вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления / под ред. В.А. Богомолова.- 2-е изд., перераб.и доп.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.- 295с.

Axborot manbaalari

10. www.imf.org - Xalqaro valyuta fondi
11. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
12. www.worldbank.org - Jahon banki
13. www.gcc-sg.org - Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorlik kengashi
14. www.isdb.org - Islom taraqqiyot banki
15. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

10-mavzu. Mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini va raqobardoshligini ta'minlash Xo'jalik munosabatlarning globallashuvi. Geoiqtisodiy maydonning vujudga kelishi. Milliy iqtisodiyotning xo'jalik munosabatlari globallashuv jarayonida tugan o'rni. O'rganilayotgan mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligini va raqobardoshligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari. O'rganilayotgan mamlakatlarda tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlari. Mamlakat iqtisodiyotining raqobardoshligi va uni ta'minlash yo'llari. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizda tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalari. Davlatning tashqi iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish tizimi va uni takomillashtirish yo'llari. III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Fanga kirish 2. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlikning mohiyati, asosiy ko'rsatkichlari, tahlillar 3. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlikni ta'minlash mexanizmi 4. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari 5. Korxona va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligi 6. Xo'jalik faoliyatining moliya, pul-kredit sohasidagi iqtisodiy xavfsizligi 7. Energetika sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash 8. Oziq-ovqat xavfsizligi 9. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini va raqobardoshligini ta'minlash 10. Xufyona iqtisodiyot va korruptsiyaga qarshi kurashish 11. Mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini va raqobardoshligini ta'minlash 12. Mamlakatning tashqi iqtisodiy xavfsizligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jhozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlikning mohiyati, asosiy ko'rsatkichlari, tahlillar. 2. O'rganilayotgan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlikni ta'minlash mexanizmi. 3. O'rganilayotgan mamlakatlarda shaxsning iqtisodiy xavfsizligini	
--	--

ta'minlash yo'llari. 4. O'rganilayotgan mamlakatlarda korxona va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligi. 5. O'rganilayotgan mamlakatlarda xo'jalik faoliyatining moliya, pul-kredit sohasidagi iqtisodiy xavfsizligi. 6. O'rganilayotgan mamlakatlarda energetika sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash. 7. O'rganilayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligi. 8. O'rganilayotgan mamlakatlarda mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash. 9. O'rganilayotgan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot va korruptsiyaga qarshi kurashish. 10. O'rganilayotgan mamlakatlarda tashqi iqtisodiy xavfsizligini va raqobardoshligini ta'minlash. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.	3. V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Fanni o'zlashtirish natijasida magistrlar: - iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlik va uning asosiy parametrlari, Mintaqa mamlakatlari iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshligini amalga oshirishda mamlakatlarining amalga oshirayotgan siyosatining ustuvor yo'nalishlari, mintaqaviy iqtisodiy siyosat qonuniyatlari va uning o'ziga xos xususiyatlari, sanoat siyosati va uning asosiy bosqichlari, bank-moliya tizimi xavfsizligi, agrar munosabatlari va oziq-ovqat xavfsizligi xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</i> - Mintaqa mamlakatlarida iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlikning asosiy xususiyatlari hamda mamlakatlar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, Mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligi chora-tadbirlari, kadrlarni yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, Mintaqa mamlakatlarida mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasi, kichik biznesning oziq-ovqat ishlab chiqarish sektori va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmi, Mintaqa mamlakatlarida oziq-ovqat bilan ta'minlanishning mintaqaviy jihatlarini tahlil etish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi;</i> - iqtisodiy xavfsizlik va raqobardoshlik tizimini ishlab chiqish, oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash, iqtisodiyotdagi tankbiy o'zgarishlarni amalga oshirishda xorijiy kapitalning o'rni masalalari bo'yicha tadqiqotlarning tizimli tahlil metodlarini qo'llash <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i> 4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadlar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash;
---	--